Key words: tourism potential, tourism appeal, region, Republic of Karakalpakstan.

Аннотация. В статье рассмотрены основные направления развития туристического потенциала Республики Каракалпакстан. В частности, категория «туристический потенциал региона» представлена как основа формирования его туристической привлекательности. Исходя из потенциала развития туристической инфраструктуры региона, обозначены возможные направления исследования туристического потенциала. На основе выделенных автором направлений проведена оценка туристического потенциала Республики Каракалпакстан.

Ключевые слова: туристический потенциал, туристическая привлекательность, регион, Республика Каракалпакстан.

KIRISH

Ma'lumki, turizm muayyan tegishli iqtisodiy sohalarning: transport, aloqa, qishloq xo'jaligi, savdo, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish va boshqalar rivojlanishini rag'batlantiradi. Turizm o'zining muhim iqtisodiy potentsialidan tashqari, bandlikka ta'sir ko'rsatgani uchun ham muhim ijtimoiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu asosda aytganda, Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm iqtisodiyotini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar va mavjud potentsial bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish va o'rganish dolzarbdir. Ekologik va ijtimoiy vaziyatning og'irligiga qaramasdan, Qoraqalpog'iston Respublikasida turizmni rivojlantirish imkoniyatlari juda katta. Qoraqalpog'iston hududida 131 ta arxeologik, 25 ta me'moriy, 89 ta monumental, 39 ta diqqatga sazovor obyekt, jami 284 ta me'moriy moddiy-madaniy meros obyektlari ro'yxatga olingan [9].

Qadimgi va o'rta asrlar Xorazm davlati hamda Kerder madaniyatining 90% tarixiy obidalari aynan shu hududda joylashgan. Bundan tashqari, Qoraqalpog'istonda ekoturizm uchun foydalanish mumkin bo'lgan tabiiy obyektlarning muhim fondi mavjud: Ustyurt platosi, Qizilqum cho'llari, Amudaryoning vodiylari va deltasi, Quyi Amudaryo davlat biosfera qo'riqxonasi (sobiq Baday To'g'ay qo'riqxonasi, bu yerda ekzotik hayvonlar — gienalar, yovvoyi qo'ylar, kal bo'rsiq, cho'pin hamda noyob qushlar mavjud), Sudochoye ko'li (ko'chib yuruvchi qushlar uchun to'xtash joyi), Xo'jakul ko'li, Lazarev oroli (kamdan-kam uchraydigan pushti ohaktosh kareri bilan), Karaumbot tuz botqog'i va boshqalar. Mo'ynoq shahridagi kemalar qabristoni ham sayyohlarni jalb qilishi mumkin bo'lgan noyob yodgorlikdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI


Ta'kidlash kerakki, muayyan hududning turizm potensialini aniqlashga turlicha yondashuvlar mavjud. Bugungi kunda hududning turizm potensialini tushunish uchun ikkita asosiy va bitta sintetik yondashuvni shakllantirgan holda uchta asosiy nuqtai nazarni tahlil qilish maqsadga muvofiq ko'rinadi. Bular — taklifga asoslangan yondashuv va talabga asoslangan yondashuvlardir [1]. Birinchi yondashuv (taklifga asoslangan baholash) turizm potentsiali, birinchidan, turistik diqqatga sazovor joylar soni va sifatiga, ikkinchidan esa, hududning turizm infratuzilmasining rivojlanishiga bog'liq funksiyadan iborat ekanligini ko'zda tutadi. Mazkur yondashuvni, masalan, D. Spotts [2], B. Boers va S. Cottrell [3], A. Sazykin [4] hamda D. Ushakov [5] asarlarida kuzatish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, hududning turizm potensialini baholashda ushbu yondashuv hozirda MDH davlatlari amaliyotida eng keng tarqalgan yondashuvlardan biridir [6]. Turizm potentsiali nafaqat maqsadga, balki obyektiv asoslarga ham ega bo'lib, u turistik diqqatga sazovor joylar va infratuzilma obyektlarining kombinatsiyasidan iborat deb talqin qilinadi. E'tiborlisi, S. Xoll va S. Peyj [7] ushbu yondashuvning shakllanishiga iqtisodiy geografiya tushunchalari va modellarini turizm iqtisodiyotiga qo'llash an'anasi turtki bo'lganini ta'kidlaydi. S. Formika [8] to'g'ri qayd etganidek, ushbu yondashuvga ko'ra, hududda muzeylar, piyoda yo'llari va/yoki turar joylar sonining ko'payishi avtomatik ravishda sayyohlar oqimining o'sishiga olib kelishi kerak, biroq amaliyotda bu har doim ham tasdiqlanavermaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasining ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib, nazariy tahlil va monografik kuzatuvlar asosida hududning turistik potentsialini rivojlantirish nazariy asoslarining ayrim masalalarini yoritish maqsad qilingan. Tadqiqotda bilish nazariyasining induksiya va deduksiya, mantiqiy yondashuv, makon va zamon, shuningdek, suhbat usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR


Bugungi kunda O'zbekistonda 2 mingdan ziyod tarixiy yodgorliklar mavjudligi mamlakatimizda tarixiy madaniy turizmni rivojlantirish potentsiali yuqori ekanligidan dalolat beradi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston hududlari kesimida tarixiy yodgorliklar soni¹

1-rasmda ko'rinib turganidek, mamlakatimiz katta turistik potentsial imkoniyatlarga ega. Mamlakatimiz nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun jahonda ham katta turizm markazlaridan biri hisoblanadi. O'z navbatida, Qoraqalpog'iston Respublikasining turistik potentsialini shartli ravishda quyidagicha 5 guruhga ajratish mumkin. Xususan: tarixiy obidalar; madaniy turizm obyektlari; diniy (ziyosat) turizm obyektlari; ekologik obyektlar; etnik turizm obyektlari.

¹ O'zbekiston Respublikasi davlat statistika agentligining <https://www.stat.uz> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasining turistik potentsiali²

Quyida ular orasidagi sayohatchilar diqqatiga sazovor bo'lgan obyektlarning ba'zilarini turistik jozibadorligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqamiz. Tarixiy obidalar. Ma'lumki, qadimiy Xorazm cho'l qal'alari YuNESKning Butunjahon moddiy merosi obyektlari ro'yxatiga kiritilgan. Eng muhim cho'l qal'alari: Tuproqqal'a, Ayoqqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Katta Guldursun qal'asi, Pirqal'a, Anqaqal'a, Qo'rg'oshinqal'a, Jonbosqal'a va boshqalar. Tuproqqal'a — Buyuk Xorazmshohlarning ilk poytaxti bo'lgan ajoyib tarixiy obida. Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, qal'a xarobalari 17,5 gektar maydonni (500×350 metrni) egallaydi. Qal'aning shimoli-g'arbida eni ham, bo'yi ham 180 metr keladigan ikki qavat qilib qurilgan hashamatli saroy xarobalari ko'zga tashlanadi. Saroyi dushmandan mudofaa qilish maqsadida har biri 25 metr keladigan uchta minora qurilgan. Shahar atrofi har 30–40 metrda kvadrat shaklidagi minorasi bo'lgan ikki kilometrlik devor bilan o'rab olingan. Shuningdek, shaharning bosh darvozalarini qo'riqlash uchun balandligi 10–12 metr bo'lgan maxsus yirik istehkomlar barpo etilgan [10].

Tuproqqal'a majmuasi tashqi tomondan qasr atrofi, devorlar, minoralar, kemalar va asosiy tuzilish ostidagi bo'sh ichki qism, yuqori saroy majmuasi, saroy–ma'bad majmuasi hamda To'proqqal'a shahridan iborat. Hozirgi Tuproqqal'a uyumining turistlar uchun tarixiy jozibadorligi quyidagilarda namoyon bo'ladi: antik Xorazm davlatining ilk poytaxti, shohlar rezidentsiyasi bo'lgan, deb taxmin qilinadi; dushmandan mudofaa qiluvchi strategik ahamiyatga ega bo'lgan; bu inshootning bunyod etilishi tarixda "Xorazm era"sini boshlab bergan voqea sifatida yuksak baholanadi. Tuproqqal'a uyumining ekskursion jozibadorligi uning ekzotik fragmentlarida va vayron bo'lgan muhtasham arxeologik majmuaning sirli manzaralaridadir. Qo'yqirilganqal'a eramizdan avvalgi IV–III asrlarda qurilgan bo'lib, o'z zamonasining rasadxonasi bo'lgan. Qal'a qurilishining me'moriy jihatdan O'rta Osiyodagi eng qadimgi qal'alardan biri ekanligi ta'kidlanadi. Tarixchi-olim S.P. Tolstov qal'adagi astronomik kuzatishlarga mo'ljallangan besh derazali xonani sinchiklab o'rganib, ayrim uskuna qoldiqlariga qarab, bu yerda rasadxona (observatoriya) bo'lganligi haqida ilmiy dalillar keltirgan [11]. Demak, Qo'yqirilganqal'ada dunyoning boshqa hududlariga nisbatan ancha ilgari rasadxona tashkil etilib, koinot ilmi jadal rivojlangan. Bu xulosa xorijlik tadqiqotchilar va sayyohlar qiziqishini yanada kuchaytiradigan omildir.

Ayoqqal'a — hududdagi eng yirik majmualardan biri bo'lib, milodning I asri oxiri va II asrlarida Xorazm Kushonlar saltanati tarkibiga kirgan. Ayoqqal'a—1 qo'rg'oni 60 metr baland toq tepaligidagi tekislikda qurilgan bo'lib, pastak g'isht devor bilan o'rab olingan katta qo'rg'on shaklida bo'lgan. Qo'rg'on 9 ming kvadrat metr maydonni egallaydi. Qal'alarning birida o'sha davrdagi Xorazm qo'shini joylashgan bo'lib, u shimoliy chegara hududlarini nazorat qilgan. Ayoqqal'a majmuasi baland tog' tekisligi ustida viqor bilan qad ko'targan bo'lib, xorijlik sayyohlar e'tiborini tortadi. Turistlar e'tiborini oshiradigan jihatlar uning juda qadimiyligi va tarixiy ahamiyatining yuqoriligidir. Guldursunqal'a miloddan avvalgi 400 yilda qurilgan bo'lib, aslida zardushtiylik ibodatxonasi hisoblanadi. Bu ulkan inshoot bir qishloq yonida joylashgani bois minoralar tepasidan juda go'zal tabiiy manzarani tomosha qilish mumkin. XII asrda qurilgan Guldursunqal'a 1221 yilda mo'g'ullar tomonidan vayron qilingan. Mazkur tarixiy obidaga tashrif buyurgan sayohatchilar qal'a atrofida aylanishi, minoralarga chiqishi va bo'sh ichki qismini o'rganishi mumkin. Jonbosqal'aning maftunkor holati va balandligi 20 metrni tashkil etuvchi bezatilgan devorlari ta'sirli manzarani yuzaga keltiradi.

Jonbosqal'a Xorazmning eng qadimgi cho'l qal'alaridan biri bo'lib, miloddan avvalgi IV asrda qurilgan. Qirqqizqal'a tarixi miloddan avvalgi IV–III asrlarga borib taqaladi va Buyuk Qirqqizqal'a hamda Kichik Qirqqizqal'ani o'z ichiga oladi. Har ikki qal'a Qizilqum cho'lining o'rtasida joylashgan bo'lib, hozirda qisman vayron holatdadir. Mizdakxon nekropoli miloddan avvalgi IV asr – milodiy XIV asrlarga oid arxeologik-me'moriy majmuadir. Uning maydoni 200 gektarni tashkil etadi. U Kunya–Urganch (Turkmaniston), Qo'ng'iro't, Mo'ynoq hududlari hamda Ustyurt platosi yo'nalishida joylashgan bo'lib, bir nechta qadimiy maqbaralar, diniy inshootlar

2 Muallif tomonidan tuzilgan.



va ikki ming yillik qabrlarni o'z ichiga oladi. Majmuadagi vayron bo'lgan madrasa ichida yuzlab mayda tosh qoziqlar mavjud bo'lib, ular arxeologlar e'tiborini tortadi.

Mizdakxon majmuasidagi miloddan avvalgi II asr maqbaralari, V asrdagi zardushtiy nekropol, miloddan avvalgi VII asrga mansub xristian xochlari, IX asr musulmon qabrlari, IX asr xalifasi Erejep maqbarasi, XII asr Mazlum Suluxon maqbarasi, Jumart Xassab maqbarasi, musulmon madrasasi, uzunligi 25 metr bo'lgan Shamun Nabi mozori, Mizdakxon shahri xarobalari kabi obidalar turistlar, ayniqsa xorijlik sayyohlar e'tiborini tortadi.

Bugungi kunda Qoraqalpog'iston tarixiy-madaniy turizm yo'nalishiga I.V. Savitskiy nomidagi davlat san'at muzeyi, Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyi, Ellikqal'a tumani Arxeologiya muzeyi, Mo'ynoq tumani ekologiya muzeyi, Qonliko'l tumani 90-yillar muzeyi, Qoraqalpog' davlat universiteti qoshidagi Berdaq muzeyi, Amet va Oyimxon Shamuratovlar uy muzeyi, shuningdek, etnoturizm yo'nalishidagi Nukus shahridagi marhum hunarmand Azat O'tarboev ustaxonasi, "Suvenirlar dunyosi" va "Saukele" hunarmandchilik do'konlari, Mo'ynoq tumanidagi Hunarmandlar xiyoboni, Chimboy tumanidagi o'tov tayyorlovchi hunarmandlar ustaxonasi (Ko'kshiqal'a mahallasi), hunarmandlar Azamat Turekeev, Adil Tadjimuratov, Qunduz Qurbanova ustaxonalari, Chimboy tumanidagi "Ma'naviyat maskani" va boshqa obyektlar kiradi.

I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi xalq amaliy san'ati, qadimiy va o'rta asrlar Xorazm san'ati, 1920–1930-yillar o'zbek va rus tasviriy san'ati, qoraqalpog' zamonaviy rangtasviri va haykaltaroshligi, ilmiy–ma'rifiy bo'limlar, 10 mingdan ortiq asarga ega kutubxona, fond hamda ta'mirlash ustaxonasidan iborat. Fondida 90 mingdan ortiq eksponat mavjud. Muzey fondida 1920–1930-yillarda avangard rassomlar yaratgan asarlar to'plangan. Qoraqalpog' xalq ustalari tomonidan yaratilgan zargarlik, yog'och o'ymakorligi, kashtado'zlik, to'qimachilik, ayniqsa o'tov jihozlari amaliy san'at bo'limida jamlangan. Muzey 1968–1969 yillarda Moskvadagi Sharq muzeyida Qoraqalpog' to'plamini ilk bor namoyish etgan. 1970 yildan boshlab respublikamiz va xorijiy mamlakatlar (AQSh, Fransiya, Germaniya, Italiya, Yaponiya, Rossiya va boshqalar)dagi ko'rgazmalarda ishtirok etadi. Britaniyaning "The Guardian" gazetasi uni dunyoning eng nufuzli muzeylaridan biri deb e'tirof etgan. Ushbu muzey kolleksiyasining qiymati va hajmi bo'yicha rus avangardi asarlarining ko'pligi jihatidan Sankt-Peterburgdagi Rus muzeyidan keyingi o'rinda turishi haqidagi fikrlar mavjud [12]. Shubhasiz, bunday madaniy–tarixiy va ma'rifiy obyekt turistlarda katta qiziqish uyg'otadi. 1998 yildan buyon muzeyga tashrif buyurgan turistlar sonining qariyb 20 baravar oshgani ham buni tasdiqlaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyida qoraqalpog' xalqining XIX–XX asrlardagi milliy kiyimlari, mehnat qurollari, Orol dengizi tabiati, dengiz atrofida yashagan hayvonot dunyosi, rassomlar R. Matevosyan va F. Madgazin qalamiga mansub bebaho asarlar mavjud. Davlat o'lkashunoslik muzeyi 1929 yilda tashkil etilgan bo'lib, undagi 65 mingdan ortiq eksponatlar tarix va madaniyat yodgorliklari, qadimgi uyumlar, qal'alar maketlari, qoraqalpog' xalqining madaniyati, san'ati, milliy kiyimlari, oshxona jihozlari, o'lka tabiati va hayvonot olami, flora va fauna, landshaft dioramalari hamda Qoraqalpog'iston aholisi va hayot tarzi haqida muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Mo'ynoq o'lkashunoslik muzeyining eksponatlari va kolleksiyalari mahalliy aholining Orol fojiasidan avvalgi hayoti va dengiz qurishi tarixini aks ettiruvchi artefaktlar asosida shakllangan bo'lib, ushbu muzey ekologiyaga befarq bo'lmagan xalqaro tashkilotlar va oddiy tabiatparvar sayyohlar e'tiborini tortadi.

Ziyorat turizmi obyektlari. Ziyorat turizmi yo'nalishiga Mizdakxon arxeologik kompleksi, "Dovut ota", "Sulton Uvays bobo", "Shayx Jalil bobo", "Norinjon bobo", "Qoraqum eshon", "Paygambar qizi", "Yusuf eshon", "Mazlumxon-suluv", "Qabaqli ota", "Hakim ota", "Kechirmas bobo" ziyoratgohlari kiradi. Mazkur muqaddas maskanlar bugungi kunda musulmon sayyohlar diqqatiga sazovor bo'lib, ziyorat turizmini rivojlantirish obyektlari sifatida xizmat qilmoqda. Ekologik obyektlar. Sayyohlarni avvalo ekologik ofat oqibatlarini aks etgan joylar o'ziga tortadi: suv omborining qurigan qismi tubida hosil bo'lgan va Aralkum deb nom olgan qumli-sho'r cho'l, Urga qishlog'i yaqinidagi qadimgi Saka qabilalarining dafn joylari, jonsiz Ustyurt platosi, Borsakelmes oroli kabi hududlarga tashrif buyurgan sayyohlar mahalliy landshaftlarni chinakam apokalipsis yoki fantastik filmlar dekoratsiyalariga o'xshatadilar. Ustyurt platosi Qoraqalpog'istonning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, 70 ming kvadrat metr maydonni egallaydi.

Turistlarni qiziqtiradigan geografik va ekologik xususiyatlar quyidagilardan iborat: strategik ahamiyatga ega bo'lgan savdo yo'nalishi sifatida Qadimgi Buyuk Ipak yo'li bo'ylab joylashganligi; suvsiz cho'lda apokalipsis ko'rinishiga ega landshaft; eol haykallari va ekzotik relyeflarning g'ayrioddiy manzaralari; Ustyurt kengliklarida o'tkaziladigan sport musobaqalarida qatnashish imkoniyati (masalan, 2015-yil 6–12-iyun kunlari uzunligi 2970 km bo'lgan "Toshkent–Mo'ynoq–Toshkent" yo'nalishi bo'ylab bo'lib o'tgan "Rally-Muynak" avtorallisi); cho'ponlarning ekzotik hayoti, ular orasida ma'lum muddat birga yashash va innovatsion loyihalar doirasida ilmiy qiziqishlarni qondirish imkoniyati; boy flora (platoda 600 ga yaqin o'simlik turlari mavjud bo'lib, ularning 70 dan ortig'i dorivor, farmatsevtika sanoati uchun zarur xom ashyo bo'lishi mumkin); hayvonot dunyosining jozibasi (qushlarning 200 dan ortiq turlari, ularning 52 turi uya qurmaydi, sut emizuvchilar va 300 dan ortiq umurtqali hayvonlar turlari); sayg'oqlar ko'payadigan hududlar — O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga hamda



IUCN Qizil kitobiga kiritilgan (Sayg'oq qo'riqxonasi). Sudoche yoki Sudovshin ko'li 1991-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qarori bilan tashkil etilgan bo'lib, Amudaryo deltasining g'arbiy qismida joylashgan. Uning maydoni 333 km² (2000-yillar boshi holatiga ko'ra), dengiz sathidan 53 m balandlikda. Ko'lni Amudaryoning Ravshan va Priemuzjak qo'ltiqlari oziqlantiradi. Orol dengizining qurishidan oldin u bilan tor kanal orqali bog'langan bo'lib, baliq turlarining yumurtlama joyi vazifasini o'tagan. Sudocheda yiliga baliq ulovi 2000 t ga yetgan, maksimal chuqurligi 3 m bo'lgan. Sudoche ko'lining minerallashuvi 3–4 % ni tashkil etadi. Yilning issiq davrida suv 25–27 °S gacha isiydi. Noyabr–dekabrda muzlaydi, fevral oxiri – aprel boshida ochiladi. Ko'l suv-botqoqli hududlarga boy bo'lib, bir nechta kichik va 4 ta yirik suv havzasidan tashkil topgan: Katta Sudoche, Akushpu, Begdulla-Oydin va Qoratereng. Shimolda Orol dengizi, g'arbda Ustyurt platosi, sharqda Qizilqum cho'li, janubda Amudaryo bilan chegaradosh ushbu ko'l tizimining geografik o'rni biologik xilma-xillikning yuqori darajasini belgilaydi. Ko'lning turistlarni jalb etuvchi jihatlari: suvning betakror feruza rangi; transkontinental migratsiya qiluvchi qushlarning ko'chishi; ko'l maydonining 40 ming gektarga tengligi; ko'llar tizimining mavjudligi (Qoratereng, Umar Salim, Qorazhar, Akushpa, Begdulla Oydin va boshqalar); tur dasturi doirasida suv musobaqalarida qatnashish imkoniyati va boshqalar. Sariqamish ko'li Sariqamish botiq yerining markaziy qismida joylashgan bo'lib, maydoni o'zgaruvchan va Xorazm vohasidan keladigan kollektor suvlariga bog'liq.

XX asr oxiriga kelib, ko'l sathi 3200 kvadrat metrga yetgan, sho'rliги esa 20 % dan oshadi [14]. Sayyohlar uchun qiziqarli jihatlari: go'zal tabiat; noyob qush turlarining ko'pligi (pushti flamingolar, qora oqqushlar); hayvonot dunyosini kuzatish imkoniyatlari; ko'l bo'yida individual va oilaviy dam olish imkoniyati; suv musobaqalarida qatnashish. Aralqum — qurigan Orol dengizi o'rnida paydo bo'lgan yangi qumli va sho'r cho'l bo'lib, Oqqum ("Oq cho'l") nomi bilan ham ataladi. Uning maydoni 38 ming km² dan ortiq. Quyi Amudaryo davlat biosfera qo'riqxonasi 2013-yilda tugatilgan Baday-Tog'ay davlat qo'riqxonasi negizida, bundan tashqari Beruniy va Amudaryo tumanlaridan ajratilgan yerlar hisobiga tashkil etilgan ekologik obyekt bo'lib, umumiy maydoni 68717,8 gektarni tashkil etadi. Ko'plab sayyohlarni obyektning quyidagi jihatlari qiziqtiradi: Amudaryo deltasidagi to'qay o'rmonlarining tabiiy resurslari; Toldiq o'rmoni va uni shimol hamda shimoli-g'arbdan o'rab turgan Amudaryoning Ko'kdaryo irmog'i; ilmiy tadqiqotlar va monitoringlar o'tkazish imkoniyati; noyob hayvon turlarini ko'paytirish va tiklash jarayonlari (ohular, kulanlar, Prjevalskiy otlari, Buxoro buramashox echkilari, Buxoro kiyiklari); ko'plab noyob qushlarning yashashi va uyalashi uchun qulay sharoitlar (daraxtlar, butalar, o'simliklar, qirg'oq qoyalari va sayozliklar); noyob yirtqich qushlar; qo'riqxonaning o'simlik va hayvonot dunyosi; hududda individual va oilaviy dam olish imkoniyatlari. Qo'riqxona hududida Jampik qal'asi, Gaur qal'asi, Chilpiq tepaligi, Sulton Uvays tog'lari, Shayx Jalil bobo yodgorligi va boshqa tarixiy hamda tabiiy obyektlar mavjud bo'lib, ular zamonaviy turistik infratuzilmalarni yaratish orqali arxeoturizm yo'nalishini yanada rivojlantirish imkonini beradi. 2021-yilda Qoraqalpog'istonning Qo'ng'iro't tumanida davlat tabiatni muhofaza qilish muassasasi sifatida tashkil etilgan 1447143 gektar maydonli "Janubiy Ustyurt" milliy tabiiy bog'i, 1,1 million gektar maydonli "Markaziy Qizilqum", "Orolbo'yi qo'riqxonalar" kompleksi va "Kuldjuktog'" qo'riqxonasi, shuningdek Mo'ynoq tumanida 280,5 ming gektar maydonni egallagan "Sudoche-Akpetki" davlat buyurtmasi kabi obyektlarning yaratilishi bu hududlarda noyob hayvonlar va qushlarni — sayg'oq, qoplon, yo'lbars, Turkiston qora laylagi, qarag'ay, oq-ko'zli o'rdak, qizil ko'krak g'ozi va boshqalarni saqlab qolish hamda ko'paytirish imkonini beradi. Bu esa ko'plab sayyohlarni, tadqiqotchilarni, ekologlarni, mutaxassislarni hamda "yashil sayyora", "tirik planeta" kabi xalqaro tashkilotlar vakillarini jalb etadi.

Etnik turizm obyektlari. Qoraqalpoqlarning o'ziga xos madaniyati — an'anaviy ovullar, urf-odatlar, og'zaki xalq ijodi (folklor) bayramlari, turli an'analarga bag'ishlangan festivallar, milliy hunarmandchilik va amaliy san'at turlari sayyohlar uchun qiziqarli hisoblanadi. Ayniqsa, qoraqalpoq hunarmandchiligi juda mashhur bo'lib, turizm uchun jozibador yo'nalishlardan biridir: gilam to'qish, charmga naqsh bosish, to'qimachilik, kashtachilik, yog'och o'ymakorligi, fil suyagidan mozaika yasash va boshqa hunar turlari chet ellik sayyohlar e'tiboriga molik bo'lib, qo'llab-quvvatlash va ommalashtirishga muhtoj sanaladi. 2014-yilda O'zbekiston Badiiy akademiyasining Qoraqalpog'iston filiali negizida hunarmandchilikni rivojlantirish markazi ochilib, uning asosiy maqsadi qoraqalpoq xalqining boy madaniy merosi va tarixiy an'analarni saqlash, milliy hunarmandchilik va amaliy san'at turlarini rivojlantirish, noyob yo'nalishlarni qayta tiklash va keng targ'ib qilishdan iboratdir. Qoraqalpog'iston madaniy merosining etnik tarkibiy qismi mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga, shuningdek turizm sohasi salohiyatining oshishiga sezilarli hissa qo'shadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan tahliliy ma'lumotlar va ta'kidlab o'tilgan ilmiy-nazariy fikrlarimizdan kelib chiqib, xulosa qilib aytganda, Qoraqalpog'istonda turizmni rivojlantirish xususiyatlari uning iqtisodiy potentsialini belgilovchi quyidagi omillar bilan bog'liq bo'lib: a) tabiiy-iqlim sharoitining ekzotik o'ziga xosligi, b) ulug'vor tabiat yodgorliklari, v) ko'hna va qiziqarli tarixiy-madaniy yodgorliklarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Biroq,



fikrimizcha, o'lka turizm turlarining rivojlanish imkoniyatlari nuqtai nazaridan Orol dengizi fojiasi kontekstida ekologik turizmning potentsiali cheksiz, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Formica S., Uysal M. Destination attractiveness based on supply and demand evaluations: an analytical framework // Journal of Travel Research. 2006. Vol. 44 (4). P. 418–430.
2. Ribeiro J.C., Vareiro L.C. The Tourist Potential of the Minho-Lima Region (Portugal). Visions for Global Tourism Industry: Creating and Sustaining Competitive Strategies. InTech Publisher, 2012. P. 339–356.
3. Spotts D.M. Regional analysis of tourism resources for marketing purposes // Journal of Travel Research. 1997. Vol. 35 (3). P. 3–15.
4. Boers B., Cottrell S. Sustainable Tourism Infrastructure Planning: A GIS-Supported Approach // Tourism Geographies. 2007. Vol. 9 (1). P. 1–21.
5. Sazykin A.M. Polemicheskie zametki geografa o problemakh terminologii v rekreatsionnoi geografii i turizme // Turizm na Dalnem Vostoke: biznes, investitsionnye strategii, obrazovanie i ekologiya: materialy region. nauch.-prakt. konf. "Daltur-2001". Vladivostok, 2002. S. 306–310.
6. Ushakov D.S. Strategicheskoe planirovanie v turizme. Rostov n/D., 2007. 288 s.
7. Gavrilov A.Yu. Razvitie metodologii otsenki resurnogo potentsiala turizma na regionalnom urovne // Servis v Rossii i zarubejom. 2012. № 6 (33). S. 59–68.
8. Hall C.M., Page S.J. The Geography of Tourism and Recreation: Environment, Place and Space. London, 2002. 309 p.
9. Formica S. Destination attractiveness as a function of supply and demand interaction. Unpublished doctoral dissertation. Blacksburg, 2000. 203 p.
10. Sayyohlik industriyasini rivojlantirish – iqtisodiy taraqqiyot kafolati. Elektron resurs: <https://evu.uz/magazine/sayyohlik-industriyasini-rivojlantirish-iqtisodiy-taraqqiyot-kafolati.html>
11. Allambergenov M. Qadimiy mudofaa qo'rg'onlari. Toshkent, 2007. – 13-b.
12. Tolstov S.P. Drevnii Khorezm: Opyt istoriko-arkheologicheskogo issledovaniya. Moskva, 1948. – 352 s.
13. "The Guardian": Qoraqalpoq muzeyi. Elektron resurs: http://www.nurzamon.uz/article_view.php?id=185
14. Ametov M.B. Ptitsy Karakalpakii i ikh okhrana. Nukus, 1981. 138 s.
15. Ozero Sarykamys. Elektron resurs: – <http://erkinkarakalpak.uz/index.php/home/467-2014-11-12-10-19-16>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
